



XUNNLAR TARIXI: TAHLIL VA NATIJALAR

Nazirov Baxtiyor Safarovich¹

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti
o'qituvchisi (Denov O'zbekiston), Tel:+998996776022,

Qalandarova Madina Jo'rabek qizi²

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti
talabasi (Denov O'zbekiston), Tel:+998997081641

e-mail: qalandarovam05@gmail.com.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-36>

ARTICLE INFO

Received: 06th February 2023

Accepted: 16th February 2023

Online: 17th February 2023

KEY WORDS

Xunn, Maodun, Tangriqut,
Chunggu, Markaziy
Mo'g'uliston, skiflar, Yueban,
Xun xoqonligi.

ABSTRACT

Qadimgi dunyo tarixini o'rganar ekanmiz, ko'plab qabilalar va xalqlarning o'zaro aloqalar va harbiy yurishlar oqibatida bir-biriga singishib ketganini ko'rishimiz mumkin. Shunday qabilalardan biri xunn qabilasi hisoblanadi. Xunlar qadimgi dunyo tarixida ko'chmanchi va bosqinchi xalq sifatida tanilgan. Ushbu maqola orqali siz, xunlarning g'arbga tomon siljishlari, qadimgi Xitoy bilan munosabatlari, harbiy yurishlari, boshqaruv tizimi, shuningdek o'ziga xos madaniyati bilan tanishasiz.

Qadimgi dunyo tarixida Osiyo va Yevropa xalqlarining hayotiga birdik o'z ta'sirini o'tkazgan xalqlardan biri bu turkiy xunn qabilalari hisoblanadi. O'zi mavjud bo'lgan davr va hududlarning tarixiy voqealar jarayonida yetakchi ro'l o'ynagan ushbu xalqlar tarixi yetarli darajada yaxshi o'rganilmagan. Ushbu xalqning tarixini o'rganish turkiylarning tarixini, qadimgi dunyo tarixini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Xunlar kimlar va ular nima uchun aynan xunlar deb yuritilgan degan fikrlar olimlarni o'ylantirib kelmoqda. Saqlanib qolingan arxeologik va yozma manbaalarga asoslanib shunday xulosaga kelish mumkinki, "Xunn" nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, mazkur nom turkiylarning umumiy nomi hisoblangan va o'zida juda ko'p qabilalarni birlashtirgan. Turkshunos olimlar I. Bichurin va N.Gumilevlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, eng qadimgi turkiylar to'g'risidagi ma'lumotlar miloddan avvalgi 1756-yilda xitoy manbaalarida "Syunnu" yoki "Xunnu" shaklida uchraydi. Turk so'zi milodimizning V asridan boshlab ishlatila boshlagan.[3] Aholisining asosiy mashg'uloti ko'chmanchi chorvachilik bo'lib, asosan ko'chma o'tovlarda istiqomat qilishgan. Xunlar tug'ma jangchi bo'lishgan. Tinch vaqtda kundalik yumushlari bilan mashg'ul bo'lib, urush vaqtida hamma jangga kirgan. Qo'shin asosan otliq qismlardan iborat bo'lgan. Urushlarda asir tushganlar qulga aylantirilgan, lekin ulardan asosan kundalik ishlarida foydalanishgan.

Xunlar davlatining geografik o'rni, tabiati va aholisi. Qadim zamonlarda Markaziy Mo'g'uliston, Baykalorti, Xesi yo'lasi, Shimoliy Xitoyning katta qismida ko'chmanchi xunn qabilalari yashar edilar. Xunlar mamlakati tog'lar, yassi tog'lar, tekisliklar va bepoyon cho'llardan iborat edi. Bu joylarning iqlimi xilma-xil bo'lib yozi jazirama issiq, qishi esa qahraton sovuq bo'lgan. Qishda tez-tez qor bo'ronlari, yozda esa qum bo'ronlari bo'lib turar edi. Xunlar mamlakatidagi tog' oralaridan kam suvli soylar oqib chiqib, cho'llar ichida



yo'qolib ketadi. Bu o'lkaning shimoliy qismi tayga o'rmonlariga yaqin bo'lgani uchun o'simliklar va hayvonot dunyosi boy edi. Janubiy qismi cho'l va dashtlardan iborat bo'lganligi uchun hayvonot va o'simliklar dunyosi kambag'alroq. Xunlar mamlakati temir, mis, kumush, qo'rg'oshin va oltin konlariga boy bo'lgan. Ammo bu o'lkada bepoyon yaylovlar ko'p edi.

Markaziy Mo'g'uliston, Baykalorti, Xesi yo'lagida qadimdan boshlab, juda ko'p ko'chmanchi qabilalar yashaganlar. Bu ko'chmanchi qabilalarning katta qismini xunn qabilalari tashkil etgan. Xunlar ushbu hududlarning tub joy aholisi bo'lib, ularning ajdodlari tosh asridan beri shu yerlarda istiqomat qilganlar. Miloddan avvalgi III–II mingyilliklarda xunlarning ajdodlari ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib tirikchilik o'tkazganlar. Miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi yarmidan boshlab aholining asosiy qismi ko'chmanchi chorvador bo'lgan. Mashhur xitoy tarixchisi Sim-Syanning ma'lumotlariga qaraganda xunlar Markaziy Mo'g'uliston, Baykalorti, Xesi yo'lagi, Shimoliy Xitoyning katta qismini egallaganlar. Ular yerga va aravalarga o'rnatilgan o'tovlarda yashaganlar. Har yer-har yerda qishlov uchun qishloqlari bo'lgan. Xunlar asosan yilqichilikka alohida e'tibor berganlar. Qayerda o't, suv va yaylov ko'p bo'lsa, o'sha joylarda qoramol podalari, qo'y-echki suruvlari va ot-tuya uyurlari bilan yaylovdan-yaylovga ko'chib yurganlar. Tinchlik va osoyishtalikda esa ular yuechji, dunxi, usun, ayniqsa xitoyliklar bilan qizg'in savdo-sotiq olib borganlar. Ular Xitoy madaniyatidan bahramand bo'lganlar. Xunlar janjun, jun, dunxi, yuechji kabi qabilalar bilan urushlar olib borib, ularni o'zlariga itoat ettirganlar.

Xunlar davlatining tashkil topishi va kuchayishi. Miloddan avvalgi IV asrlarda Markaziy Mo'g'uliston, Baykalorti, Xesi yo'lagi, Shimoliy Xitoyning shimolida xunn qabilalarining harbiy ittifoqi tashkil topadi. Tumanbaliq uning markazi hisoblangan. Xun qabilalarining bu harbiy ittifoqi asta-sekin kuchayadi. Miloddan avvalgi III asr oxirlariga kelib xunn qabilalarining harbiy birlashmasi asosida Xunn ko'chmanchilari davlati tashkil topadi. Xitoy tarixchisi Sim-Syanning yozishicha, xunlarning harbiy sardori Shanyu deb atalar edi. Xunn sardorlari – shanyulari qattiq intizomli, qilich, kamon, nayza, dubulg'a bilan qurollangan, tez harakat qiluvchi otliq qo'shinga ega bo'lganlar. Ular quyun kabi o'z dushmanlari ustiga bostirib borib, ularni vahimaga solib qo'yganlar.[2]

Miloddan avvalgi 3-asr oxirida (214 yil) birinchi Xi-toy imperiyasi — Sin (Chin) davlati hunlarga hujum qilib, ularga tegishli ba'zi hududlarni bosib olgan. Shundan so'ng, ular o'rtasida uzoq muddatli urush boshlangan. Sin imperiyasi mudofaa devori qurib hunlarning otliq qo'shinlari hujumiga qarshi to'siq yaratishga kirishgan (Buyuk Xitoy sevori). Shunga qaramay, miloddan avvalgi 209 yil yangi tashkil etilgan G'arbiy Xanning dastlabki davrida hunlar ilgari yo'qotgan hududlarni qaytarib olishga erishganlar. Miloddan avvalgi 209 yil Mode Ruziye davlatidagi tutqunlikdan qochib qutulib otasidan hokimiyatni tortib olgan. U chorak asr davomida atrofdagi barcha turkiy qabilalarni tobe etib, mustaqil Hun xoqonligini tashkil etgan.[15]

Xunn sardorlaridan biri Maodun ichki dushmanlarini yenggach, dunxu qabilalari ustiga katta qo'shin bilan bostirib boradi. Shiddatli va ayovsiz jang oqibatida dunxular tor-mor etiladi. Maodun dunxular hukmdorini o'ldirib, ko'p odamlarni asir olib, podalarini haydattirib ketadi. Miloddan avvalgi 203–202-yillarda Maodun Sayan, Oltoy va Yenisey (Enasoy) daryosining yuqori oqimidagi joylarni bosib oladi.



Miloddan avvalgi 200-yilda Xan podshosi Lyu Ban xunnlarni ustiga qo'shin tortadi. Maodun harbiy hiyla ishlatib, qo'shinlari bilan Baydan tog'lariga chekinadi. Lyu Ban esa bir guruh tezkor jangchilari bilan xunnlarni ta'qib qilib borib, asosiy qo'shinlaridan uzoqlashib ketadi. Xunlar Lyu Ban qo'shinlarini qurshab olib, ularni qirib tashlaydilar. Lyu Ban asir tushadi. U juda ko'p mol-mulk va qizini Maodunga berish sharti bilan asirlikdan ozod bo'ladi. Lyu Ban va'dasini bajarmay, qizini Maodunga yuborishni paysalga soladi. Maodun katta qo'shin bilan Xan chegaralaridan o'ta boshlaydi. Bu xabarni eshitgan Lyu Ban katta mol-mulk bilan qizini xunlar hukmdoriga uzatishga majbur bo'ladi. Shundan keyin ikki o'rtada tinchlik sulhi tuziladi. Sulhdan so'ng ikki davlat o'rtasidagi do'stlik 40 yil davom etadi.[11]

Xunlar davlatining kuchayishi. Miloddan avvalgi 177-176 yillarda xunlar g'arbgga tomon yurish qilib Sharqiy Turkiston va uning g'arbidagi 26 davlatni jumladan: Krurona, Usun, Xuji (o'g'uz) kabi xonliklarni o'ziga bo'ysundiradi. Qang' davlati hukmdori ham xunlarga tobeligini izhor etadi va bu davlat hukmdori bilan quda bo'lib qarindosh tutinadi.

Xunlar Maodun va uning vorisi Maoshin (miloddan avvalgi 174-161-yillar) davrida yuechjilar bilan 25 yil davomida urush olib boradilar. Urushda yuechjilar yengilib, ularning sardori halok bo'ladi. Xunlarning shanyusi Laoshin yuechji sardorining bosh chanog'ini kesdirib olib, undan sharob kosa yasattirgan ekan. Urush xunlarning g'alabasi bilan yakunlanadi. Yuechjilar Pomir va Farg'ona orqali Baqtriyaga ko'chib ketishga majbur bo'ladilar.

Shundan keyin xunlar Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng kuchli davlatga aylanadi. Xan podsholari xunlardan qo'rqib, ularga ko'p miqdorda o'lpon va sovg'alar yuborib turganlar. Xitoy bozorlari xun savdogarlari uchun ochiq deb e'lon qilingan. Miloddan avvalgi II asrning birinchi yarmi xunlar davlatining eng kuchaygan davri bo'lgan.

Xitoy-Xun urushlari va xunlar davlatining kuchsizlanishi. Miloddan avvalgi IV asrdan boshlab avval Sin podsholigi, keyin Xan podsholiklari kuchayib, U-Di davrida Xan podsholigi nihoyatda kuchayadi. Miloddan avvalgi 123-yili xitoy qo'shinlari xunlarni Xan saltanatining shimoliy chegaralaridan surib chiqaradilar. Miloddan avvalgi 120-119-yillarda xan qo'shinlari Dunxuangacha bo'lgan yerlarni bosib oladilar. Xunlar esa xitoylarning g'arb tomon yurishlariga qarshilik ko'rsatadilar.

Miloddan avvalgi 119-yildagi bo'lgan jangdan keyin xitoy qo'shinlari xun sardorining qarorgohini bosib oladi. Jangda 90 ming xun askari va ko'p xitoy askari halok bo'ladi.[15]

Miloddan avvalgi 99-90-yillar orasida xunlar bilan xitoylar o'rtasida qattiq urushlar bo'lib o'tib, ko'pincha xunlar g'olib chiqadilar.

Xitoylar esa g'arbda usunlar, sharqda uxuanlar va shimolda Yenisey bo'yi qabilalari bilan harbiy ittifoq tuzib, miloddan avvalgi 71-yili xunlarga uch tomondan hujum boshlaydilar. Bu jang ittifoqchilarning g'alabasi va xunlarning mag'lubiyati bilan tugagan. Miloddan avvalgi 71-yilgi mag'lubiyatdan so'ng Xun davlati kuchsizlanib, miloddan avvalgi 56-yili Shimoliy va Janubiy qismlarga bo'linib ketadi. Bu davrda Shimoliy Xunlarda bo'linish ro'y berib, bir qancha xunlar g'arbgga tomon siljiydi. Ularning bir qismi hukmdor Qutush boshchiligida Qang' davlatiga hududiga borib joylashgani manbaalarda keltirilgan. Mazkur holat Qang' davlatining ham xunlar ittifoqida ekanligidan dalolat beradi. Tarixiy manbaalardan ma'lumki qadimgi qang' davlati ko'chmanchi sak qabilalari tomonidan asos solingan. Saklar



ko'chmanchi qabila ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning turmushini xunlar bilan yaqinligini ko'rishimiz mumkin. [6]

Yunon tarixchilari bergan ma'lumotga ko'ra xunlarning bir qismi Issiqko'lning g'arbida joylashib bu yerda Yueban etnik uyushmasini tashkil etadi. Ma'lumki, eftaliylar aynan mana shu etnik uyushmadan ajralib chiqib, keyinchalik Markaziy Osiyoda qudratli davlatga asos solishadi.

Xunlarning g'arbga ko'chishlari. Shanyu Xuxane boshliq janubiy xunlar Xitoyga tobe bo'lib, ular bilan ellik yilcha tinch-totuv yashaganlar. Chji-chji boshliq shimoliy xunlar g'arb tomon siljiganlar. Lekin xitoy qo'shinlari ularni ta'qib qilib borib tor-mor etganlar. Milodning I asrida xunlar o'zlarini biroz tiklab olganlar. Ammo 87-93-yillarda xitoylar syanbi va dinliklar bilan ittifoq bo'lib xunlarni tor-mor keltirganlar.

Bu davrda Shimoliy Xunlarda bo'linish ro'y berib, bir qancha xunlar g'arbga tomon siljiydi. Ularning bir qismi hukmdor Qutush boshchiligida Qang' davlatiga hududiga Sirdaryoning quyi qismni va Orol dengizining shimoliga borib joylashgani manbaalarda keltirilgan. Mazkur holat Qang' davlatining ham xunlar ittifoqida ekanligidan dalolat beradi. Tarixiy manbaalardan ma'lumki qadimgi qang' davlati ko'chmanchi sak qabilalari tomonidan asos solingan. Saklar ko'chmanchi qabila ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning turmushini xunlar bilan yaqinligini ko'rishimiz mumkin.[6]

Yunon tarixchilari bergan ma'lumotga ko'ra xunlarning bir qismi Issiqko'lning g'arbida joylashib bu yerda Yueban etnik uyushmasini tashkil etadi. Ma'lumki, eftaliylar aynan mana shu etnik uyushmadan ajralib chiqib, keyinchalik Markaziy Osiyoda qudratli davlatga asos solishadi.

Keyingi asrlar davomida xunlar Shimoliy Qozog'iston orqali yurib, Itil va Don daryolaridan o'tib Shimoliy Kavkazdagi alanlarni o'zlariga itoat ettirganlar. Xunlar sardori Balamber 375-yil o'z qo'shinlari bilan Shimoliy Qora dengiz bo'ylarini egallagan. Shu yerda yashovchi gottlarning bir qismi xunlarga tobe bo'lganlar va o'zlarini osgotlar, ya'ni sharqiy gotlar deb ataganlar. Xunlarga tobe bo'lmagan gottlar Frakiyaga borib joylashib, o'zlarini vestgottlar deb ataganlar. 394-395-yillarda xunlarning bir qismi Suriya va Kappadokiyaga bostirib kirganlar.

Ular g'arbga yurishni davom ettirib, Dunay daryosining yuqori qismidagi yerlarni bosib olganlar. Shu yerdan turib ular Sharqiy va G'arbiy Rim saltanatiga ham tahdid solib turganlar.

Attila davrida (434-453) Markaziy Yevropaning juda ko'p qabilalari xunlarga tobe bo'lgan. 451-yilda xunlar Galliyaga bostirib kirganlar. Ammo rimliklar, vesgottlar va franklarning birlashgan qo'shinlari Katalaun yonidagi jangda xunlarni yengib, ularni orqaga chekintirganlar. 453-yilda Attila vafot etgach, xunlar davlati kuchsizlangan. Ularning 455-yili Pannoniyaga, 469-yili Bolqonga qilgan yurishlari mag'lubiyat bilan tugagan.

Shundan keyin xunlar ittifoqi tarqalib, davlat mutlaqo kuchsizlangan. Xunlar mahalliy aholiga qo'shilib ketganlar. Shu tariqa 7-8-asr hukm surgan Xunlar davlati 5-asr oxirlariga kelib barham topgan.

Xunlar davlatida boshqaruv tizimi. Xunlar davlati o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega bo'lgan. Bu davlat ko'plab qabilalardan tashkil topgani uchun olimlar uni konfederatsiyaga qiyoslaydi. Xoqonlikda oliy hukmdor "Tangriqut" hisoblanib "tangri farzandi" ma'nosini anglatadi. Bu atama xitoy manbalarida "Shanyu" deb yuritilgan. Undan keyingi o'rinlarda



“so'lqo'lxoni” va “o'ngqo'lxoni” kabi kichik xonlar lavozimi joriy etilgan. Harbiy ishlar bo'yicha “o'ng qo'l qo'mondon” va “so'l qo'l qo'mondon” kabi lavozimlar joriy qilingan. Tobe o'lkalarni markaziy hokimiyat tomonidan qo'yilgan 14 ta kichik xon boshqargan.

Xunlar davlatining madaniyati. Xunlar ham o'zlariga xos oddiy, soddagina madaniyat yaratganlar. Ammo ular Qadimgi Xitoy madaniyatidan keng foydalanganlar. G'arbga ko'chgan xunlar madaniyatiga O'rta Osiyo xalqlari va Rim madaniyati kuchli ta'sir ko'rsatgan. Xunlar ijtimoiy hayotida shamaniylik dini chuqur ildiz otgan. Xunlarga xos shamaniylik an'analari keyinchalik qadimgi turk, eski turk davrlarida ham davom etgan. Tarixiy manbalar va arxeologik yodgorliklardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, xunlar o'z yozuv tizimiga ega bo'lishgan. Lekin bu yozuv qaysi alifbo asosida yaratilgani va qanday shakldaligi ma'lum emas.

Milodiy 250-yilda Xun hukmdori Chunggu xoqon Qang'toy ismli odamini Kambodjaga elchi qilib yuboradi. Elchi Kambodjaliklarning yozuvi xunlar yozuviga o'xshash ekanligini yozib qoldirgan. O'sha davrda kambodjaliklarning qanday yozuvdan foydalanganligi ma'lum emas. VI asrda turk xoqonlardan hisoblangan Istamini vafoti munosabati bilan qo'yilgan qabrtoshda uch xil yozuvlarda bitiklar yozilgan. Ulardan biri so'g'd yozuvida, ikkinchisi xitoy yozuvida, uchinchi esa noma'lum yozuvda yozilgan. Ana shu noma'lum yozuvni olimlar xunlar yozuvi degan xulosalar berishmoqda. [13]

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Xunlar nafaqat Osiyo balki jahon siyosiy tarixida ham katta rol o'ynadi. Xunlar (turklar) qadimda mavjud bo'lgan insoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan xalqlardan biridir. Turklarning qadimgi ajdodlari bevosita Xunlar ekanligini hisobga olsak Xunlarni tarixini o'rganish va ushbu ma'lumotlarni Markaziy Osiyo tarixi bilan bog'lab muhim ahamiyatga ega. Miloddan avvalgi II-I asrlarda yashagan Rim tarixchilari Ammian, Martselin, Ptolomey ma'lumotlariga ko'ra O'rta Osiyodan Qora dengizgacha bo'lgan hududlarda yashagan “skiflar” bevosita Xunlarning avlodi ekanligi haqida ma'lumotlar keltirishgan. Yuqoridagi ma'lumotlarni V asrda yashagan Vizantiyalik tarixchi Menandr ham o'z asarida keltirib o'tgan. Manbaalarda Xunlar davlati janubiy Sibir, Mo'g'uliston, shimoliy Xitoy hududlaridan to o'rta Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Qora dengizgacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olganligi qayd etilgan.[3] Bevosita bu davr tarixiga nazar tashlasak, Qang', Dovon singari mamlakatlarning vujudga kelishi va inqirozga uchrash vaqtiga e'tibor qiladigan bo'lsak, Xunlar bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xun qabilalari nafaqat Xitoy balki, bu davrda mavjud bo'lgan O'rta Osiyo davlatlari bilan ham aloqalarni yo'lga qo'ygan. Xunlarning siljishlari boshqa qabilalar bilan aralashib ketishiga ham sabab bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra hattoki skif qabilalari xunlarning avlodlari hisoblangan.

References:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T: O'qituvchi. 1994.
2. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'li. T: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
3. Gumilev L.N. Xunnu. M.:1960



4. Sultonov F. Qadimgi dunyo tarixi. T: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2012.
5. Гумилев Л.Н.. Древние тюрки. Часть первая. Кристалл. 2003
6. Otaxo'jaev A. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida Turk-So'g'd munosabatlari. T: Art-Flex. 2010.
7. Muhammadjonov A. Qang' – qadimgi Toshkent va toshkentliklar. T: Sharq. 2009.
8. Собранные сведения. М.; 1973 г.
9. O'zbekiston diplomatiyasi. Tarixiy ocherklar va lavhalar. T.; 2003.
10. Vang Chjilay. Chjung'ya shigang (Markaziy Osiyoning qisqacha tarixi). Changsha. 1986. 57 b.
11. Чебоксаров Н.Н., Чебоксарова И.А. Народы, расы, культуры. М.: Наука, 1985.
12. Геродот. История. / Пер. Г. А. Стратановского. М., 1999.
13. Думан Л.И. Внечнеполитические связи древнего Китая и истоки даннической системы. Китай и соседи. М., 1970
14. Источниковедение истории Древнего Востока. М. – Л., 1950
15. Azim Malik. Xunnu davlati // Muloqot № 1-2, 1994, 55-58-betlar